

**O‘ZRESPUBLIKASI RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**“T A S D I Q L A Y M A N”**

**Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash  
va malakasini oshirish instituti  
direktori Y.Kanyazov**



**2026-yil 21-aprel**

**“Sud qurilish-texnikaviy ekspertizasi”, “Sud-transport-baholash  
ekspertizasi” va “Sud-transport-trasologiya ekspertizasi” turlari bo‘yicha  
yakuniy nazorat o‘tkazishga oid**

**METODIK MATERIALLAR**

**“Sud qurilish-texnikaviy ekspertizasi”, “Sud-transport-baholash ekspertizasi” va “Sud-transport-trasologiya ekspertizasi” turlari bo‘yicha qayta tayyorlash o‘quv kurslari tinglovchilari uchun yakuniy nazorat o‘tkazishga oid**

**METODIK KO‘RSATMALAR**

Mazkur metodik ko‘rsatmalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentyabrdagi PQ-270-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-son va 2026-yil 20-fevraldagi 73-son qarorlari asosida ishlab chiqilgan. Sud ekspertizasining muayyan turi bo‘yicha uzluksiz ravishda o‘n yil davomida sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirgan sud eksperti hamda uzluksiz ravishda kamida so‘nggi uch yil davomida sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirib kelayotgan davlat sud ekspertlari ushbu ixtisoslik bo‘yicha qayta tayyorlash kurslarini o‘tmasdan yakuniy imtihon topshirishga haqli.

Sud ekspertlarini yakuniy nazoratdan o‘tkazish bo‘yicha quyidagi talablar qo‘yiladi:

*Umumiy malaka talablari:*

Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari ustuvorligiga rioya qilish mahorati;

huquq normalarini to‘g‘ri tushunish, uni adolat prinsiplari asosida qo‘llay bilish mahorati;

huquqiy madaniyat saviyasi va huquqiy tarbiya mahorati ko‘nikmasi;

sud ekspertlik faoliyatida ishni adolat va xolis hal qilish, insoniylik va qonuniylik omillarini ta‘minlaydigan boshqa fazilat hamda shaxsiy sifatлари;

kompyuter dasturlari, ma‘lumot bazalari va elektron hujjat aylanishi bilan ishlash ko‘nikmasi;

vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarishi;

murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror chiqarishi.

*Kasbiy malaka talablari:*

qabul qilinayotgan sohaviy yangi qonunlar va amaldagi qonun hujjatlariga kiritilgan oxirgi o‘zgartish va qo‘shimchalarning mazmun-mohiyati, xorijiy mamlakatlardagi sud-ekspertlik faoliyati haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lishi;

ashyoviy dalillarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va ekspertiza uchun tayyorlash tartibini bilishi;

ilmiy asoslangan metodlar asosida tahlil, o‘lchash, diagnostika va baholashni amalga oshirishi;

aniq, asosli, tushunarli va normativ talablariga mos xulosa rasmiylashtirishi;

laboratoriya asbob-uskunalari, o‘lchov qurilmalari va maxsus texnikalar bilan ishlay olishi;

sud jarayonida o‘z ekspert xulosasini asoslab berish va savollarga aniq javob bera olishi;

texnika xavfsizligi, biologik va kimyoviy xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi; o‘z yo‘nalishidagi yangi metodlar, texnologiyalar va ilmiy adabiyotlarni muntazam o‘rgangan bo‘lishi.

## YAKUNIY NAZORAT O‘TKAZISH TARTIBI

Talabgorlar ikki bosqichda – kompyuterda topshiriladigan *test sinovlari* hamda *suhbat shaklida* imtihon topshiradilar.

Test savollari bilan tanishib chiqish, javobni tanlash va imtihon testini to‘ldirish uchun **40 (qirq)** daqiqadan ko‘p bo‘lmagan vaqt belgilanadi.

Suhbat shaklidagi yakuniy nazorat bilet tanlash orqali o‘tkaziladi. Bunda biletlardagi savollar 1 ta huquqiy, 1 ta sohaga oid qonunchilik, 2 ta mutaxassislik va 1 ta muammoli holat (kazu)dan iborat bo‘ladi. Tinglovchiga tayyorlanish uchun 15 daqiqagacha vaqt beriladi. Savol-javob davomida tinglovchiga bilet mazmuni doirasida qo‘shimcha savollar berilishi mumkin.

Yakuniy nazorat tashkil etish va o‘tkazish Institut direktorining burug‘i bilan tashkil etilgan komissiya tomonidan o‘tkaziladi. Yakuniy imtihon natijalari komissiya a‘zolari tomonidan imzolanadigan qaydnoma varaqalari bilan rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat doirasida talabgorlar:

- tegishli faktlar va muammolarni aniqlash;
- asosiy huquqiy masalalar yuzasidan tanqidiy mushohada yuritish;
- asosiy kasbiy faoliyatiga oid tegishli vaziyatlarini bilish va anglash;
- izchil va konstruktiv ravishda yozma shaklda o‘zlashtirilgan o‘quv materialini, mantiqiy xulosalarni bayon qilish qobiliyatini namoyish etishi lozim.

Talabgorlar bilimi va o‘zlashtirish darajasi **100 ballik** tizim asosida butun sonlar bilan baholanadi.

Talabgorlar **55** va undan kam ball to‘plagan taqdirda, yakuniy nazoratdan o‘tmagan hisoblanadi.

**Yakuniy nazoratda baholash quyidagicha taqsimlanadi:**

Qoniqarsiz		Qoniqarli		Yaxshi		A‘lo	
Ball		Ball		Ball		Ball	
Min	Max	Min	Max	Min	Max	Min	Max

0	55	56	70	71	85	86	100
---	----	----	----	----	----	----	-----

**a) 86 – 100 ball olish uchun talabgor:**

- o‘z sohasi bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;
- sohaga oid terminologiyadan aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;
- muammoli savollarni aniqlashi, o‘z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;
- o‘z sohasining tayanch tushunchalarini bilishi;
- nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko‘rsata olishi;
- amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda to‘liq bajara olishi va kompetensiyalarni to‘liq egallashi;
- amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;
- o‘z sohasi bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglashi, ularga tanqidiy baho berishi lozim.

**b) 71 – 85 ball olish uchun talabgor:**

- davlat ta‘lim talablari doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo‘lishi;
- sohaga oid terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to‘g‘ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo‘l qo‘yishi;
- javob berishga yoki ayrim maxsus ko‘nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, soha bo‘yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;
- amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ammo xatoliklar bilan to‘liq bajara olishi;
- kompetensiyalarni mustaqil, ammo xatoliklar bilan egallashi;
- o‘z sohasining umumiy tushunchalari bo‘yicha qisman bilimga ega bo‘lishi va uni standart vaziyatlarni hal etishda qo‘llay olishi;
- o‘z sohasi bo‘yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi lozim.

**d) 56 – 70 ball olish uchun talabgor:**

- davlat ta‘lim talablari doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo‘lishi;
- sohaga oid terminologiyani ishlashi, savollarga javoblarni to‘g‘ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yishi;
- javob berishga yoki ayrim maxsus ko‘nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va xatolarga yo‘l qo‘yganda, fan (kurs) bo‘yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;
- amaliy ko‘nikmalarni mustaqil emas va xatoliklar bilan to‘liq bajara olishi;
- kompetensiyalarni mustaqil egallay olmasligi;

– o‘z sohasining umumiy tushunchalari bo‘yicha qisman bilimga ega bo‘lishi va uni standart vaziyatlarni hal etishda qo‘llay olishi;

– o‘z sohasi bo‘yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi lozim.

**e) 0 ball – 55 ball olish uchun talabgor:**

– davlat ta‘lim talablari doirasida zarur bilimlarga ega bo‘lmasa;

– sohaga oid terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo‘pol mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘ysa yoki umuman javob bermasa;

– amaliy ko‘nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo‘lmasa, o‘z xatolarini to‘g‘rilay olmasa.

**Sud ekspertlarini yakuniy nazoratdan o'tkazish bo'yicha  
TEST VA BILETLAR**

**Sud qurilish-texnikaviy ekspertizasi yo'nalishi.**

**1. Konstitutsiyaga muvofiq, davlat hokimiyati tizimi qanday prinsip asosida quriladi?**

- a) markazlashuv prinsipi
- b) hokimiyatlar bo'linishi prinsipi
- v) bir shaxs boshqaruvi
- g) federatsiya prinsipi

**2. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qanday holatda ish yuritadi?**

- a) sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda
- b) sud hokimiyati Oliy Majlisdan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda
- v) sud hokimiyati Oliy Majlis Qonunchilik palatasidan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda
- g) sud hokimiyati Oliy Majlis va Senatidan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda

**3. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari qaysi tamoyil asosida himoya qilinadi?**

- a) davlat manfaatlari ustuvorligi
- b) inson va fuqarolarning huquqlari oliy qadriyat ekanligi
- v) sud qarorlari ustuvorligi
- g) prezident qarorlari ustuvorligi

**4. Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi kimga berilgan?**

- a) Prokurorga
- b) Sudga
- v) IIB rahbariga
- g) Hokimga

**5. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari qaysilar?**

- a) aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish
- b) ta'lim va fan sohasini rivojlantirish
- v) yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish
- g) barcha javoblar to'g'ri

**6. Ushlab turish muddati...?**

- a) 12 soat
- b) 24 soat
- v) 48 soat
- g) 72 soat

**7. Murojaatlarning qanday shakllari mavjud?**

- a) og‘zaki, yozma yoxud elektron shaklda bo‘lishi mumkin
- b) og‘zaki, anonim yoxud elektron axborot shaklda bo‘lishi mumkin
- v) anonim, yozma yoxud elektron ma’lumot shaklda bo‘lishi mumkin
- g) og‘zaki, yozma, bayonot yoxud anonim shaklda bo‘lishi mumkin

**8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentyabrdagi PQ-270-son qaroriga asosan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan o‘tkazilishiga ruxsat berilgan sud ekspertizasi turlari qanchaga ko‘paytirildi?**

- a) 55
- b) 44
- v) 56
- g) 46

**9. Sud ekspertizasini o‘tkazish asoslarini ko‘rsating?**

- a) Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi
- b) surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori, sudning ajrimi
- v) surishtiruvchi, tergovchi yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi
- g) tergovchi, prokuror yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi

**10. Sud ekspertizasi qaysi sohalarda qo‘llaniladi?**

- a) Faqat jinoyat ishlarida
- b) Faqat fuqarolik ishlarida
- v) Fuqarolik, jinoyat, xo‘jalik va ma’muriy ishlarida
- g) Faqat iqtisodiy ishlarida

**11. Sud qurilish-texnikaviy ekspertizasi predmeti nimani o‘z ichiga oladi?**

- a) Faqat qurilish narxlarini
- b) Qurilish obyektlari bilan bog‘liq fakt va hodisalar haqidagi ma’lumotlar
- v) Faqat loyiha hujjatlarini
- g) Faqat jinoyat ishlarini

**12. Suv toshishining texnik sabablaridan biri qaysi?**

- a) Faqat qo‘shnilar aybi
- b) Muhandislik tarmoqlarining eskirishi
- v) Faqat ob-havo
- g) Faqat sud qarori

### **13. Uy joylarni bo‘lishda qanday ShNK normalari ishlatiladi ?**

a) Ajratilayotgan yashash xonasining maydoni “Shaharsozlik normalari va qoidalari 2.08.01-05” da belgilangan talablarga mos kelishi kerak

b) “Shaharsozlik normalari va qoidalari 1.02.07-15” da belgilangan talablarga mos kelishi kerak

v) “Shaharsozlik normalari va qoidalari 2.01.15-05” da belgilangan talablarga mos kelishi kerak

g) “Shaharsozlik normalari va qoidalari 2.01.19-09” da belgilangan talablarga mos kelishi kerak

### **14. Uy-joylarni bo‘lishda qanday shartlarga rioya qilish zarur?**

a) Yashash xonasidan ko‘cha tomonga chiqish eshigining ochish imkoniyating borligi

b) Tomonlarning roziligini olish

v) To‘g‘ri javob yo‘q

g) Xonadondagi binolarning minimal miqdori – bitta, xona tabiiy yoritish va isitish qurilmasiga ega bo‘lishi kerak, ajratilayotgan yashash xonasining maydoni “Shaharsozlik normalari va qoidalari 2.08.01-05” da belgilangan talablarga mos kelishi kerak

### **15. Muhandislik tarmoqlari yo‘llaridagi (isitish, suv ta‘minoti, oqava tizimlari va boshqalar) avariylarning eng ko‘p mumkin bo‘lgan sabablari?**

a) modellashtirish, kuzatish (zarur bo‘lganda, qurilishlarni (joylashish joyi) asosiy qurilish (yashash uyi)ga bog‘lanishini, muhandislik tarmoqlarini joylashishini tekshirish uchun tadqiqot obyektni joyida ko‘zdan kechirish) ,ajratish, bo‘lish

b) binodan foydalanish xizmati tomonidan muhandislik tizimining tegishli texnik ko‘rigi mavjud emasligi

v) muhandislik tizimidagi sifatsiz element (jihaz, buyum, uzal), muhandislik tizimidagi elementni (jihaz, buyum, uzalni) sifatsiz montaj qilish, muhandislik tizimidagi me‘yordan ortiq bosim, muhandislik tizimidagi elementning (jihaz, buyum, uzalning) jismonan yemirilishi (eskirishi), binodan foydalanish xizmati tomonidan muhandislik tizimining tegishli texnik ko‘rigi mavjud emasligi.

g) muhandislik tizimidagi me‘yordan ortiq bosim

### **16. Tomning eng ko‘p uchraydigan kamchiliklaridan biri?**

a) Bu mustahkamlikning pastligi

b) Bu suv o‘tishiga olib keluvchi kamchiliklar

v) Bu yuk ko‘tarmasligi

g) To‘g‘ri javob yo‘q

### **17. Xonalarni suv toshishining texnik sabablari quyidagilar bo‘lishi mumkin?**

a) loyihalashda, qurilishda yoki sifatsiz ta'mirlashda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, bino tuzilmalari va muhandislik tarmoqlarining (tom, pol, devor, quvurlar, santexnik asboblari va boshqa elementlari) eskirishi (yemirilishi), binolar va muhandislik tarmoqlaridan foydalanishga yaroqlilik me'yorlari talablariga mos kelmaydigan tarzda (tomni vaqtida qordan, axlatdan tozalamaslik, sanitar-texnik asboblardan foydalanish qoidalarini buzish va boshqalar) foydalanish

b) tomdan suv o'tishi

v) tomni vaqtida qordan, axlatdan tozalamaslik

g) santexnik asboblari va boshqa elementlari eskirishi (yemirilishi)

### **18. Moddiy eskirish deganda nimani tushunasiz?**

a) moddiy eskirish – tabiiy iqlim omillari va insonning hayotiy faoliyati ta'siri natijasida dastlabki texnik-foydalanish sifatlarining yo'qotilishi

b) tabiiy iqlim omillari va insonning hayotiy faoliyati ta'siri natijasida dastlabki texnik-foydalanish sifatlarining yo'qotilishi

v) alohida tuzilmaviy elementlarning solishtirma og'irliklari va ko'z bilan ko'rib tekshirib aniqlanadigan eskirish

g) To'g'ri javob yo'q

### **19. Sud qurilish–texnikaviy ekspertizasi (SQTE) vasifasi nima?**

a) sud tomonidan berilgan shartlarga muvofiq, mulkdorlar o'rtasida uyga (hovli-joyga) egalikni amaliy bo'lish (taqsimlash) imkoniyatlarini aniqlash maqsadida uy, hovli-joylarni tekshirish; ko'rsatilgan bo'lish (taqsimlash) variantlarini ishlab chiqish

b) qurilish materialshunosligi, qurilish mexanikasi, materiallar qarshiligi, qurilish materiallarini ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil qilish, shuningdek, qurilish ishlab chiqarishi

v) bu jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlarini tekshirishda va sudda ko'rib chiqishda hamda sudda fuqarolik ishlarini umumiy yurisdiksiya (sud qilish huquqi) sudlarida ko'rib chiqishda dalil bo'lib xizmat qiladigan ahamiyatga ega bo'lgan faktlar haqida ma'lumotlar olish maqsadida ular bilan vazifaviy bog'liq bo'lgan qurilish obyektlari va hududlarni tekshirish

g) qurilish obyektlarini loyihalashdan oldin qidirish, loyihalashtirish, tiklash, foydalanish, qayta qurish, takomillashtirish, ta'mirlash, buzish, demontaj qilish va foydalanishga tiklash

### **20. Jismoniy yemirilish (fizik yemirilish) deb nimaga aytiladi?**

a) binoning dastlabki sifat ko'rsatkichlarining tabiiy-iqlimiy faktorlar va insonning hayotiy faoliyati ta'sirida asta-sekin pasayishi

b) binoning narxining bozor sharoitlarida pasayishi

v) binoning estetik ko'rinishining yomonlashishi

g) binoning yuqori qismidagi shikastlanishlar.

**21. Binolarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillarga nimalar kiradi?**

- a) tabiiy va texnogen
- b) iqlimning ta'siri
- v) texnogen ta'sirlar
- g) haroratning ta'siri

**22. Binolarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ichki omillarga nimalar kiradi?**

- a) funksional-texnologik
- b) namlikning ta'siri
- v) zarblar, titrashlar
- g) haroratning ta'siri

**23. Defekt – bu... ?**

- a) konstruksiyaning zo'riqishi
- b) konstruksiyada buzilish holatining paydo bo'lishi
- v) konstruksiyada darzlarning paydo bo'lishi
- g) konstruksiya, buyum, elementning normalar talabiga qaysidir ko'rsatkichi

bo'yicha javob bermasligi

**24. Shikastlanish – bu... ?**

- a) konstruksiyaning defektliligi
- b) konstruksiyaning bir texnik holatdan ikkinchi holatga o'tishi
- v) konstruksiyada buzilish holatining paydo bo'lishi
- g) konstruksiyaning zo'riqishi

**25. Darzlarning kelib chiqishi bo'yicha turlari?**

- a) kirishish, harorat, cho'kish, deformatsion
- b) bo'ylama, ko'ndalang, og'ma darzlar
- v) kengayuvchi, rivojlanuvchi
- g) xavfli, xavsiz

**1-Bilet**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq aybsizlik prezumpsiyasi tushunchasiga ta'rif bering?

2. Nodavlat sud ekspertining qanday huquqlari mavjud?

3. Turar-joy uylar qanday turlarga bo'linadi?

4. Binolarni qanday hollarda zilzilaga qarshi choklar bilan ajratish kerak?

5. Toshkent shahridagi 5 qavatli turar-joy binosining 3-qavatida yashovchi fuqaro A. o'z xonadonida devor va shiftlarda yoriqlar (darzlar), nam dog'lar va pol qoplamasining deformatsiyaga uchraganini aniqlaydi.

Bir necha oy davomida quyidagi holatlar kuchayib boradi:

- devorlarda qiya va vertikal darzlar paydo bo'ladi;

- shiftlarda sariq rangli suv izlari va pardoq qatlamining ajralishi kuzatiladi;

- pol qoplamasi (laminat) ko‘tarilib, ayrim joylarda uzilib ketadi.

*Ekspertiza o‘tkazilganda quyidagilar aniqlanadi:*

- binoning poydevori joylashgan zamin namlangan va qisman cho‘kkan;

- yer osti suv quvurlaridan biri avariya holatiga kelib, sizib chiqayotgan;

- bino qurilishida ayrim konstruktiv elementlarda past sifatli materiallar ishlatilgan;

- ekspluatatsiya davrida muhandislik tarmoqlari muntazam tekshirilmagan.

Natijada fuqaro A. sudga murojaat qilib, zarar uchun kompensatsiya talab qiladi.

***Ushbu holatni tahlil qiling.***

## **2-Bilet**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertiza to‘g‘risida”gi qonunining asosiy maqsadini aytib bering?

2. “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Namunaviy nizom mazmun-mohiyatini aytib bering.

3. Zilzilaviy hududlarda binolarni loyihalash paytida nimalarni hisobga olish kerak?

4. Idoraviy qurilish normalari deganda nimani tushunasiz?

5. Fuqaro A. va fuqaro B. Toshkent viloyatida joylashgan bitta hovli-joyga umumiy ulushli mulkdor hisoblanadi. Ularning ulushlari mos ravishda 60% va 40% ni tashkil etadi.

Mazkur uy-joy quyidagilardan iborat:

- 1 ta asosiy yashash uyi (4 ta xona);

- oshxona, hammom va hojatxona;

- qo‘shimcha ravishda A. tomonidan o‘zboshimchalik bilan qurilgan kichik yordamchi bino;

- umumiy kirish-chiqish yo‘lagi va muhandislik tarmoqlari (gaz, suv, kanalizatsiya).

Fuqaro A. sudga murojaat qilib, uy-joyni o‘z ulushiga mutanosib ravishda bo‘lish (ajratish)ni talab qiladi.

Fuqaro B. esa uy-joyni bo‘lish mumkin emasligini, faqat foydalanish tartibini belgilash kerakligini ta’kidlaydi.

Sud tomonidan sud qurilish-texnikviy ekspertizasi tayinlanadi.

***Ushbu holatni tahlil qiling.***

## **3-Bilet**

1. Sud-ekspertlik faoliyatining asosiy prinsiplarini sanab bering.

2. “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 08.09.2025 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 270-sonli qarori mazmun-mohiyatini nimalardan iborat?

3. Qurilishni nazorat qilish qanday amalga oshiriladi?

4. Qurilishi tugallanmagan obyekt deb qanday obyektga aytiladi?

5. Toshkent viloyatida joylashgan fuqaro M.ga tegishli bo‘lgan ikki qavatli turar-joy binosi bo‘yicha sud tomonidan ko‘chmas mulk qiymatini aniqlash yuzasidan sud ekspertizasi tayinlandi.

*Mazkur obyekt quyidagi xususiyatlarga ega:*

- umumiy maydoni: 240 m<sup>2</sup>;
- qurilish materiali: g‘isht;
- qurilgan yili: 2005-yil;
- texnik holati: qisman eskirgan (taxminan 20–25%);
- hududda rivojlangan infratuzilma mavjud (yo‘l, transport, gaz, suv);
- hovlida qo‘shimcha ravishda kichik xo‘jalik binolari mavjud;
- obyekt Toshkent shahri markaziga yaqin hududda joylashgan.

*Sud ekspertiga quyidagi savollar qo‘yiladi:*

- obyektning bozor qiymatini aniqlash;
- qaysi baholash usuli eng maqbul ekanligini aniqlash;
- o‘xshash obyektlar bilan taqqoslash orqali baholash;
- eskirish darajasini hisobga olish.

**Mazkur vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob bering:**

- ekspert qaysi baholash yondashuvini tanlashi kerak?
- qiyosiy yondashuvda qanday tuzatishlar kiritilishi zarur?
- obyektning qiymatini aniqlashda qaysi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega?
- qaysi hollarda ayrim baholash usullarini qo‘llamaslik mumkin?

#### **4-Bilet**

1. Murojaatlarni ko‘rib chiqish muddatlari haqida ma’lumot bering.

2. Sud eksperti tushunchasiga ta’rif bering. Uning qanday huquq va majburiyatlari mavjud?

3. Jismoniy eskirish deb nimaga aytiladi?

4. Funksional eskirish deb nimaga aytiladi?

5. Toshkent shahridagi ko‘p qavatli turar-joy binosining 4-qavatida yashovchi fuqaro X. sudga murojaat qilib, uning xonadoniga yetkazilgan moddiy zarar uchun yuqori qavatda yashovchi qo‘shnisi Y.dan kompensatsiya undirishni so‘raydi.

*Da’voga ko‘ra, X.ning xonadonida quyidagi shikastlanishlar aniqlangan:*

- shift va devorlarda sariq rangli suv dog‘lari va pardoz qatlamining bo‘rtishi;

- devor qoplamalarining ayrim joylarda qatlamlanishi;
- laminat polning deformatsiyasi (ko'tarilib ketishi va ayrim joylarda ajralishi);
- deraza va eshik romlarining qisman tob tashlashi;
- xonada namlik hidi va mog'or alomatlari mavjudligi.

Fuqaro Y. esa o'z navbatida aybini rad etib, suv toshishi uning xonadonidagi santexnika bilan bog'liq emasligini, balki bino tomidan suv o'tishi yoki umumiy muhandislik tarmoqlaridagi nosozlik sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.

Sud tomonidan sud qurilish-texnikviy ekspertizasi tayinlanadi.

**Mazkur vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob bering:**

- suv toshishining ehtimoliy sabab qanday ?
- zarar manbaini aniqlashda qaysi texnik belgilar hal qiluvchi ahamiyatga ega?
- ushbu holatda kim javobgar deb topilishi mumkin?

### **5-Bilet**

1. "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 08.09.2025 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 270-sonli qarorida keltirilgan maqsadlarni aytib bering?

2. Sud eksperti – bu?

3. Kapital bino va inshoot deb nimaga aytiladi?

4. Obyektni rekonstruksiya qilish deganda nimalar tushuniladi?

5. Fuqaro X. o'ziga tegishli yer uchastkasida ikki qavatli turar-joy binosini quradi. Qurilish ishlari loyiha hujjatlarisiz va tegishli ruxsatnomalarsiz amalga oshirilgan.

Qo'shni yer egasi Y. sudga murojaat qilib, mazkur bino:

- qo'shni uchastkaga juda yaqin qurilgani;
- yong'in xavfsizligi masofalariga rioya qilinmagani;
- uning yer uchastkasiga quyosh nuri tushishiga to'sqinlik qilayotgani asosida ushbu binoni buzishni talab qiladi.

Sud tomonidan qurilish-texnikviy ekspertiza tayinlanadi.

**Mazkur vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob bering:**

- ekspert tekshiruvining bosqichlari qanday amalga oshiriladi?
- ekspert qaysi savollarga javob bera oladi va qaysilariga bera olmaydi?
- qachon kompleks ekspertiza tayinlanishi zarur?
- hujjatlar yetishmasa ekspert qanday harakat qilishi kerak.

**Sud-transport-baholash ekspertizasi yo'nilishi.**

**1. O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertiza to‘g‘risida”gi qonunining asosiy maqsadi?**

- a) sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat
- b) sud ekspertiza faoliyatini tartibga solishdan iborat
- v) sud ekspertiza qonunchiligini tartibga solishdan iborat
- g) barcha javoblar to‘g‘ri

**2. Quyidagilardan qaysi biri sud ekspertining majburiyati hisoblanadi?**

- a) sud qarorini yozish
- b) ish bo‘yicha xolis va asoslangan xulosa berish
- v) ayblanuvchini himoya qilish
- g) guvohlarni chaqirish

**3. Sud ekspertizasining xulosasi qanday huquqiy ahamiyatga ega?**

- a) majburiy hukm hisoblanadi
- b) dalil sifatida baholanadi
- v) faqat maslahat hisoblanadi
- g) hech qanday ahamiyatga ega emas

**4. Mutaxassis fikri — bu?**

a) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida amalga oshiriladigan tadqiqotlar natijasi yuzasidan mutaxassis (sud eksperti)ning belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan fikri

b) jismoniy shaxslarning murojaatlari asosida amalga oshiriladigan tadqiqotlar natijasi yuzasidan mutaxassis rasmiylashtiriladigan fikri

- v) belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan yozma fikr
- g) barcha javoblar to‘g‘ri

**5. Ekspertizani tayinlashga vakolatli organ (shaxs)ning qarori (ajrimi) asosida tadqiqotlarni o‘tkazish muddatlari sud ekspertizalarining hajmi va murakkabligiga, shuningdek, sud ekspertining ish hajmiga ko‘ra necha kun doirasida belgilanadi?**

- a) 30
- b) 25
- v) 40
- g) 10

**6. Qo‘shimcha ekspertiza qachon tayinlanadi?**

- a) xulosa aniq bo‘lsa
- b) xulosa yetarli yoki tushunarli bo‘lmasa
- v) har doim
- g) faqat sud istasa

**7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentyabrdagi PQ-270-son qaroriga asosan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan o‘tkazilishiga ruxsat berilgan sud ekspertizasi turlari qanchaga ko‘paytirildi?**

- a) 55
- b) 44
- v) 56
- g) 46

**8. Qayta ekspertiza o‘tkazilishining sababi nima?**

- a) ekspert xulosasiga shubha tug‘ilishi
- b) ish tugagan bo‘lishi
- v) sud qarori chiqqani
- g) advokat talab qilgani

**9. Sud ekspertizasida obyektlar deganda nima tushuniladi?**

- a) sud binosi
- b) tadqiq qilinadigan moddiy dalillar
- v) sud qarorlari
- g) guvohlar

**10. Sud ekspertlari faoliyatini baholash qanday prinsiplarga ko‘ra asoslanadi?**

- a) qonuniylik, xolislik, shaffoflik va ilmiylik
- b) qonuniylik, oshkoralik va xolislik
- v) qonuniylik, oshkoralik, xolislik, adolatlilik va shaffoflik
- g) adolatlilik va shaffoflik

**11. Transport vositasiga ekspertiza tayinlashning huquqiy asosi qaysi?**

- a) faqat advokat xati bilan
- b) sud yoki tergov qarori bilan
- v) texnik xizmat ko‘rsatish stansiyasi arizasi bilan
- g) fuqaro arizasi bilan

**12. Jismoniy eskirish nimani anglatadi?**

- a) avtomobilning bozordagi narxi tushishi
- b) foydalanish, avariya va saqlash jarayonidagi eskirish
- v) yangi model chiqishi
- g) avtomobilning bozordagi narxi oshishi

**13. Shinalarning eskirishini aniqlashda protektor balandligi qaysi qiymat bilan taqqoslanadi?**

- a) shina diametri
- b) yangi shinaning protektor balandligi va minimal ruxsat etilgan qiymat bilan
- v) avtomobil yo‘nalishi bilan
- g) dvigatel quvvati bilan

**14. Yengil avtomobillarning o‘rtacha yillik yo‘l bosishi?**

- a) 55 ming km
- b) 35 ming km
- v) 9 ming km
- g) 90 ming km

**15. Akkumulyator eskirishini aniqlash formulasi:**

- a)  $(H.b - Ya.b) \times 100$
- b) E.akb. jism
- v)  $E.jism = E.2 \times S$
- g)  $E = (N yangi - N baho) \times 100 / N yangi$

**16. “Tiklashli ta’mir” tushunchasi nimani anglatadi?**

- a) avtomobilni to‘liq yangisiga almashtirish jarayoni
- b) avariya oldidagi holatni tiklash uchun zarur xarajatlar summasi
- v) ekspertiza xarajatlari yig‘indisi
- g) baholovchi tomonidan o‘rtacha narx belgilash

**17. Eskirish foizi qaysi paytdagi holat bo‘yicha hisoblanadi?**

- a) avtomobil ishlab chiqarilgan paytda
- b) sotuv jarayonida
- v) zarar yetkazilgan paytdag
- g) ta’mir tugagan paytda

**18. Yashirin shikastlarni aniqlash qanday amalga oshiriladi?**

- a) faqat tashqi ko‘rik asosida
- b) detallarni qismlarga ajratib tekshirish orqali
- v) internet ma’lumotlariga ko‘ra
- g) sifat sertifikatiga qarab

**19. Bo‘yalgan detallar narxini kamaytirish odatda qanday hisoblanadi?**

- a) +5% qo‘shiladi
- b) kamaytirilmaydi
- v) 3–7% oralig‘ida chegirma qo‘llanadi
- g) ikki barobar kamaytiriladi

**20. Eskirishni hisobga olish formulasi qaysi?**

- a)  $N = S \times T$
- b)  $E = P - T$
- v)  $N.e.q.e = N.e.q.yangi \times (1 - E/100\%)$
- g)  $M = W \div R$

**21. Agar ta’mir qiyamati avariya gacha qiyamatdan oshsa, qanday xulosa qilinadi?**

- a) ta’mir maqsadga muvofiq
- b) ta’mir maqsadga muvofiq emas

- v) bir xil qiymatga ega
- g) ekspert xulosasiga bog'liq

**22. Tashqi bo'yaladigan yuzaning 50% dan ortig'i shikastlangan bo'lsa:**

- a) xarajatli yondashuv
- b) daromadli yondashuv
- v) psixologik yondashuv
- g) statistika yondashuvi

**23. "To'liq yo'q bo'lish" deganda nima tushuniladi?**

- a) avtomobilni kapital ta'mirlash zarurligi
- b) ta'mirlash qiymati amtv qiymatining 85%idan yuqoriligi
- v) faqat tashqi ko'rinish buzilishi
- g) faqat ishlash xususiyati yo'qolishi

**24. 0–5 yil bo'lgan avtomobillarda K.e. qiymati nechaga teng?**

- a) 0.4
- b) 0.55
- v) 0.70
- g) 0.85

**25. Yaroqli qoldiq qiymatini aniqlash formulasi qaysi?**

- a)  $B \times K.v$
- b)  $B.yar. = B \times K.e \times K.v \times K.o.p \times N.i / 100\%$
- v)  $K.e = N.i \times 100$
- g)  $B - K.e$

### **1-Bilet**

1. O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertiza to'g'risida"gi Qonunining asosiy maqsadi nimadan iborat?

2. Qo'shimcha va qayta sud ekspertizalarining farqi nimada?

3. Sud transport baholash ekspertizasining predmeti va obyektlarini sanab o'ting?

4. Baholash standartlari nimadan iborat va ular nimani belgilaydi?

5 Fuqaro R. o'ziga tegishli bo'lgan avtomobil (AMTV) bilan yo'l-transport hodisasiga uchraydi. Hodisa natijasida avtomobilning old qismi, kapoti, bamperi va dvigatel bo'limiga zarar yetadi. Fuqaro R. Sug'urta kompaniyasi bilan nizoga kirishib, yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash maqsadida sudga murojaat qiladi. Sud tomonidan transport-baholash ekspertizasi tayinlanadi.

*Ekspertiza uchun quyidagi materiallar taqdim etiladi:*

- YHXB tomonidan berilgan hodisa haqidagi ma'lumotnoma;
- avtomobilning texnik pasporti;
- oldingi ta'mirlash ishlari bo'yicha hujjatlar;

- fotosuratlar;
  - avtomobilning bozor qiymati haqida dastlabki ma'lumotlar.
- Ekspert tekshiruv jarayonida quyidagi holatlar aniqlanadi:*
- avtomobilni bevosita ko'zdan kechirish imkoniyati mavjud emas (avtomobil boshqa hududda joylashgan);
  - hujjatlarda avtomobilning ayrim identifikatsion ma'lumotlari to'liq emas;
  - avtomobil ilgari ham qisman ta'mirlangan;
  - YHXB ma'lumotnomasidagi zararlanish tavsifi bilan fotosuratlardagi zararlanishlar to'liq mos kelmaydi;
  - zarar darajasini aniqlash uchun qo'shimcha ma'lumotlar zarur.

**Mazkur vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob bering:**

- avtomobilga yetkazilgan zarar hajmi?
- ta'mirlash xarajatlari?
- zarar hodisa bilan bog'liqmi yoki yo'qmi?
- avtomobilning hodisadan oldingi va keyingi qiymati.

**2-Bilet**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq shaxsiy huquq va erkinlik deganda nimani tushunasiz?

2. Sud ekspertizasi usullari tushunchasi va klassifikatsiyasini ayting.

3. Transport vositasining jismoniy eskirishi va turlarini sanab o'ting?

4. Transport vositasining yaroqli qoldiqlari qiymati aniqlash tartibi?

5. Fuqaro S.ga tegishli bo'lgan yengil avtomobil yo'l-transport hodisasiga uchragan. Hodisa natijasida avtomobilning old qismi (bemper, faralar, kapot), shuningdek ayrim ichki agregatlariga zarar yetgan. Sud tomonidan transport-baholash ekspertizasi tayinlanadi va ekspert oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- avtomobilning hodisadan oldingi jismoniy eskirish darajasini aniqlash;
- butlovchi qismlar eskirishini hisobga olgan holda zarar miqdorini aniqlash.

*Ekspertga taqdim etilgan ma'lumotlar:*

- avtomobil ishlab chiqarilgan yil: 2015-yil;
- foydalanish muddati: 9 yil;
- spidometr ko'rsatkichi: 210 000 km (ammo uning ishonchliligi shubhali);
- avtomobil ilgari ham bir necha marta ta'mirlangan;
- ayrim agregatlar (dvigatel va transmissiya qismlari) almashtirilgan;
- avtomobil Toshkent shahrida ekspluatatsiya qilingan;
- avtomobil texnik holati umumiy baholashda "qoniqarli" deb topilgan.

*Ekspert tekshiruv davomida quyidagilarni aniqlaydi:*

- spidometr ko'rsatkichlari aniq emas va o'zgartirilgan bo'lishi mumkin;

- ayrim butlovchi qismlar ilgari ta'mirlanganligi sababli qo'shimcha eskirish mavjud;
- avtomobilning umumiy eskirishi ayrim qismlar eskirishidan sezilarli farq qiladi;
- texnik holat bahosi bilan hisoblangan eskirish foizi o'rtasida tafovut mavjud;
- avtomobilning ayrim elementlari (masalan, shinalar va akkumulyator) alohida baholanishi kerak.

**Mazkur vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob bering:**

- haqiqiy yo'l bosishini aniqlash imkoni yo'q?
- hisoblangan eskirish darajasi 90% ga yaqin chiqishi mumkinmi?
- ayrim qismlarda eskirish darajasi 100% ga yaqinlashganmi?
- texnik holat va hisob-kitob natijalari o'rtasida nomuvofiqlik mavjudmi?

**3-Bilet**

1. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunining mazmun–mohiyatini aytib bering.

2. Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotining huquqiy maqomi va uning afillangan shaxslari deganda nimani tushunasiz?

3. Transport vositasini bozor narxini aniqlashda qanday me'yoriy hujjatlardan foydalaniladi?

4. Transport vositaning ko'zdan kechiruvi qanday tartibda amalga oshiriladi?

5. Fuqaro K.ga tegishli bo'lgan yengil avtomobil (2018-yilda ishlab chiqarilgan) yo'l-transport hodisasidan so'ng sud tartibida baholanishi lozim. Sud tomonidan transport-baholash ekspertizasi tayinlanadi va ekspert oldiga quyidagi savollar qo'yiladi:

- avtomobilning hodisadan oldingi bozor qiymatini aniqlash;
- hodisadan keyingi (zararlangan holatdagi) qiymatini aniqlash;
- yetkazilgan zarar miqdorini hisoblash.

*Ekspertga quyidagi ma'lumotlar taqdim etiladi:*

- avtomobilning modeli va texnik tavsifi;
- foydalanish muddati: 6 yil;
- o'rtacha texnik holati: "yaxshi";
- avtomobil ilgari kichik ta'mirlardan o'tgan;
- qo'shimcha jihozlar (gaz uskunasi, signalizatsiya) o'rnatilgan;
- bozor bo'yicha o'xshash avtomobillar narxlari mavjud (internet saytlari va avtosalon ma'lumotlari asosida);
- avtomobilning ayrim qismlarida nuqsonlar (bo'yoq shikastlanishi, salon eskirishi) mavjud.

*Ekspert tekshiruv davomida quyidagilarni aniqlaydi:*

– bozor ma'lumotlari mavjudligi sababli qiyosiy yondashuvni qo'llash mumkin;

– avtomobilga o'xshash analoglar narxlari turlicha va ular o'rtasida tafovut mavjud;

– qo'shimcha jihozlar qiymati alohida hisobga olinishi lozim;

– ayrim nuqsonlar avtomobil qiymatini kamaytiradi;

– avtomobil qiymatini aniqlashda savdolashish (bozor chegirmasi) omili ham mavjud;

– zararlanishni hisobga olish uchun ta'mirlash xarajatlari va tovar qiymatining qo'shimcha yo'qolishi aniqlanishi kerak.

**Mazkur vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob bering:**

– qaysi yondashuvni asosiy sifatida tanlash zarur?

– qo'shimcha jihozlar hisobga olinadimi?

– hodisadan oldingi va keyingi qiymatni farqlash zarurmi?

– qiymatni aniqlashda eskirish va nuqsonlarni to'g'ri hisobga olish kerakmi?

#### **4-Bilet**

1. Konstitutsiyaga muvofiq O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishini aytib bering.

2. Mutaxassis fikri — bu?

3. Avtotransport vositalarining ma'naviy va iqtisodiy eskirishi?

4. Transport vositasi narxining pasayishiga olib keladigan nuqsonlarni sanab o'ting?

5. Fuqaro A o'zining **2017-yilda ishlab chiqarilgan Chevrolet Cobalt** avtomobilini sotmoqchi. Avtomobilning **yurgan masofasi 120 000 km.** Bozorda shunga o'xshash avtomobillar narxi quyidagicha: **87 mln, 90 mln va 92 mln so'm.** Tekshirish jarayonida avtomobilning **chap qanoti avval bo'yalganligi** aniqlangan.

#### **Savol**

Qiyosiy yondashuvga ko'ra avtomobilning o'rtacha bozor narxi qancha?

Bo'yalgan detal uchun **3% chegirma** qo'llanganda yakuniy qiymat qanday bo'ladi?

#### **5-Bilet**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq fuqarolarning mulk huquqini tushuntirib bering.

2. Nodavlat sud ekspertining majburiyatlarini sanab o'ting.

3. Transport vositalarining tiklashli ta'mirlash bahosini hisoblashdan maqsad?

4. Avtomobil dvigateliga ta'rif bering?

5. Avtomobilning old qismida shikastlanish mavjud. Ekspert faqat umumiy surat olgan, lekin masshtabli lineyka qo'llamagan. Baholash komissiyasi shikastlanish darajasini aniq baholay olmadi.

**Savol:** Bu yerda ekspertning xatosi nimada edi?

### **Sud-transport-trasologiya ekspertiza yo'nalishi.**

**1. O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertiza to'g'risida"gi qonunining asosiy maqsadi?**

a) sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat

b) sud ekspertiza faoliyatini tartibga solishdan iborat

v) sud ekspertiza qonunchiligini tartibga solishdan iborat

g) barcha javoblar to'g'ri

### **2. Sud eksperti — bu?**

a) xulosa berish uchun hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs

b) xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy yoki yuridik shaxs

v) xulosa berish uchun fan, texnika, bilimlarga ega bo'lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs

g) xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs

### **3. Sud ekspertining protsessual maqomi qanday?**

a) sudya bilan teng

b) mustaqil ishtirokchi

v) ayblanuvchi

g) guvoh

### **4. Mutaxassis fikri — bu?**

a) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida amalga oshiriladigan tadqiqotlar natijasi yuzasidan mutaxassis (sud eksperti)ning belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan fikri

b) jismoniy shaxslarning murojaatlari asosida amalga oshiriladigan tadqiqotlar natijasi yuzasidan mutaxassis rasmiylashtiriladigan fikri

v) belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan yozma fikr

g) barcha javoblar to'g'ri

**5. Ekspertizani tayinlashga vakolatli organ (shaxs)ning qarori (ajrimi) asosida tadqiqotlarni o'tkazish muddatlari sud ekspertizalarining hajmi va murakkabligiga, shuningdek, sud ekspertining ish hajmiga ko'ra necha kun doirasida belgilanadi?**

- a) 30
- b) 25
- v) 40
- g) 10

**6. Ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorda nimalar bo'lishi shart?**

- a) faqat ekspert nomi
- b) savollar va tekshiruv obyekti
- v) faqat jinoyat tavsifi
- g) faqat tomonlar ro'yxati

**7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentyabrdagi PQ-270-son qaroriga asosan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan o'tkazilishiga ruxsat berilgan sud ekspertizasi turlari qanchaga ko'paytirildi?**

- a) 55
- b) 44
- v) 56
- g) 46

**8. Sud eksperti quyidagi qaysi harakatni amalga oshira olmaydi?**

- a) qo'shimcha material so'rash
- b) mustaqil tekshiruv o'tkazish
- v) ayblov qo'yish
- g) xulosa berish

**9. Sud ekspertining xulosasi qanday tarkibiy qismlardan iborat?**

- a) kirish, tadqiqot, xulosa
- b) faqat xulosa
- v) faqat tavsif
- g) savol-javob

**10. Ekspertning xolisligi buzilgan deb qachon hisoblanadi?**

- a) agar u tez ishlasa
- b) agar u manfaatdor bo'lsa
- v) agar u yozma xulosa bersa
- g) agar u sudda qatnashsa

**11. Trasologiya nima?**

a) Kriminalistikaning izlarni o'rganuvchi hamda ularni topish, qayd etish, olib qo'yish va tadqiq etish usullari, metodlari va ilmiy-texnik vositalarini ishlab chiquvchi bo'limi.

- b) Sud tibbiyotining o'lim sabablarini aniqlovchi bo'limi.
- v) Kriminalistikaning yong'in sabablarini o'rganuvchi bo'limi.
- g) Huquqshunoslikning moliyaviy jinoyatlarni tahlil qiluvchi sohasi.

**12. Transport-trasologik ekspertizaning asosiy predmeti nimadan iborat?**

- a) jinoyatchini aniqlash
- b) hodisaning mexanizmi va transport vositalari aloqadorligini aniqlash
- v) sud qarorini chiqarish
- g) guvohlarni tekshirish

**13. Trassologiya nimani o'rganadi?**

- a) jinoyatchi psixologiyasini
- b) izlarni va ularni tadqiq etish usullarini
- v) sud qarorlarini
- g) guvohlarni

**14. Iz tushunchasining to'g'ri ta'rifi qaysi?**

- a) faqat ko'zga ko'rinadigan belgilar
- b) obyektlar o'zaro ta'sirining moddiy aks etishi
- v) guvoh xotirasi
- g) sud qarori

**15. Iz hosil qiluvchi kuch nima?**

- a) sud qarori
- b) obyektlar o'zaro ta'sirini yuzaga keltiruvchi mexanik kuch
- v) guvoh ko'rsatmasi
- g) hujjat

**16. Transport trassologiyasining asosiy vazifasi nimadan iborat?**

- a) faqat izlarni yig'ish
- b) hodisa mexanizmini tiklash va identifikatsiya qilish
- v) sud hukmini chiqarish
- g) guvohlarni tekshirish

**17. Yonlama to'qnashuvda odatda avtomobillar qanday shikast oladi?**

- a) kuzov orqa qismi eziladi
- b) yon qismi pachoklanadi
- c) g'ildiraklar uziladi
- d) radiator yoriladi

**18. Qaysi iz transport vositasining yo'nalishi va harakat davomiyligi haqida eng aniq ma'lumot beradi?**

- a) lak-bo'yoq izlari
- b) g'ildirak izlari
- c) moy izlari

d) shisha siniqlari

**19. Yaqinlashish bosqichida asosan nimalar qayd etiladi?**

a) korpus deformatsiyasi xaritasi

b) g'ildirak izlari (tormoz/sirpanish) boshi–oxiri, traektoriya, rul-tormoz ta'siri

c) faqat yuk og'irligi

d) faqat yo'l belgilarining joyi

**20. Ag'darilishning tipik sababi qaysi?**

a) quruq yo'l qoplami

b) "gidravlik zarba" (suyuqlik siljishi) va noto'g'ri boshqaruv

c) faqat kuchli shamol

d) ruxsat etilgan tezlikda yurish

**21. Yuzaki va hajmli izlar farqi:**

a) yuzaki — faqat bo'yoq qatlamiga; hajmli — materialning chuqur deformatsiyasi

b) ikkalasi ham bir xil

c) yuzaki — har doim ko'rinmas

d) hajmli — faqat tuproqda

**22. Qaysi belgi ag'darilish boshlanish nuqtasini aniqlashda eng ishonchli?**

a) guvoh ko'rsatuvi

b) yo'l chetidagi o'tlar ezilgani

c) yonboshga qulashdan so'ng paydo bo'lgan tana qismlarining ishqalanish izlarining boshlanishi

d) tormoz suyuqligi tomchilari

**23. Eshikning ochiq bo'lganiga dalil bo'ladigan belgi?**

a) eshik atrofida iz yo'qligi

b) eshik yuqori/pastki burchagining yo'lga ishqalanib burilishi, tashqi tirnalishlar

c) qulf normal ishlashi

d) ichki qoplamaning tozaligi

**24. Voqea joyidagi tormoz izlari nimani aniqroq ko'rsatadi?**

a) guvohlar rostligini

b) harakat yo'nalishi, tezlikni baholash, joylashuv va ehtimoliy to'qnashuv joyini

c) haydovchi kasbini

D) Avtomobil markasini

**25. To'qnashuv joyini birlamchi belgilovchi alomatlardan qaysi biri to'g'ri?**

- a) gidravlik suyuqlik hidi
- b) rasmiy protokol sanasi
- c) tormoz izining keskin uzilishi/yoʻnalishining oʻzgarishi
- d) avtomobil rangi

### **1-Bilet**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq fuqarolarning qanday burchlari mavjud?

2. Nodavlat sud ekspertining huquqlarini ayting.

3. Transport-trassologik ekspertiza tushunchasini izohlang.

4. Transport-trassologik ekspertiza yordamida hodisa mexanizmi qanday aniqlanadi?

5. Toshkent shahrida tungi vaqtda yoʻl-transport hodisasi sodir boʻladi. Hodisa natijasida piyoda fuqaro jarohat oladi, ammo hodisani sodir etgan transport vositasi voqea joyidan yashirinadi. *Voqea joyini koʻzdan kechirish davomida quyidagilar aniqlanadi:*

- asfalt yuzasida gʻildirak izlari va tormoz izlari mavjud;
- piyodaning kiyimida koʻk rangli boʻyoq zarrachalari topilgan;
- hodisa joyida avtomobil bamperiga xos plastik parchalari aniqlangan;
- yoʻl chetida joylashgan temir toʻsiqda urilish izlari mavjud;
- guvohlar tomonidan “kichik hajmli oq rangli avtomobil” haqida taxminiy maʼlumot berilgan.

*Tergov davomida uchta avtomobil aniqlanadi:*

- oq rangli “Tiko” rusumli avtomobil (old bamperida shikast mavjud);
- koʻk rangli “Spark” rusumli avtomobil (chap tomoni tiralgan);
- oq rangli “Matiz” rusumli avtomobil (old farasi siniq).

*Sud tomonidan transport-trasologik ekspertiza tayinlanadi.*

**Mazkur vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob bering:**

- gʻildirak izlari bir nechta transport vositalariga mos kelishi mumkinmi?
- boʻyoq zarrachalari faqat bitta avtomobil bilan mos kelishi mumkinmi?
- izlarning bir qismi vaqt oʻtishi bilan buzilishi ehtimoli bormi?

### **2-Bilet**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq jamiyatning iqtisodiy negizlari nimalardan iborat?

2. Sud eksperti xulosasi qanday qismlardan tashkil topadi?

3. Xossa va xususiyatlari, holati yoki joylashgan joyi isbotlov predmetiga tegishli boʻlgan shart-sharoitlar haqida isbotlov (daliliy) ahamiyatga ega boʻlgan moddiy obyekt nima deb ataladi?

4. To‘qnashuv turlarini sanab bering va ularning mexanik farqini tushuntiring.
5. 2025-yilda Toshkent viloyatidagi ikki polosali yo‘lda “Cobalt” va “Nexia” rusumli avtomobillar to‘qnashadi.

*Voqea joyida quyidagi izlar aniqlanadi:*

- taxminan 18 metrli to‘g‘ri chiziqli tormoz izi;
- egri shakldagi yonlama sirpanish (yaw) izlari;
- yo‘l markazida shisha siniqlari, bo‘yoq va plastik parchalar;
- asfalt yuzasida chizilish va metall ishqalanish izlari;
- yo‘l chetida qo‘shimcha kontakt izlari va texnik suyuqliklar tomchilari.

*To‘qnashuvdan keyin:*

- “Cobalt” yo‘l chetida burchak ostida to‘xtagan;
- “Nexia” qarama-qarshi tomonga o‘tib, qisman aylanib to‘xtagan;
- har ikkala avtomobilda ham old qismda jiddiy deformatsiyalar mavjud.

Izlar aralashgan, birlamchi va ikkilamchi kontaktlar mavjud bo‘lishi mumkin. Guvoh ko‘rsatmalari bir-biriga mos kelmaydi. Transport vositalari to‘qnashuvdan keyin siljigan va aylangan.

Mazkur holatda hodisa mexanizmi izlarning yo‘nalishi, turi va joylashuvi asosida transport-trasologik usullar yordamida tiklanishi lozim.

**Mazkur vaziyatga baho bering.**

### **3-Bilet**

1. Normativ huquqiy hujjat nima va uning qanday turlari mavjud?
2. Sud protsessida maxsus bilimlardan foydalanishning tushunchasi va shakllarini ayting.
3. To‘qnashuv mexanizmi nechta bosqichdan iborat?
4. Ag‘darilish sabablari nimalar?
5. Toshkent viloyatida “Cobalt” va “Nexia” avtomobillari to‘qnashadi. Voqea joyida tormoz va sirpanish izlari, shisha siniqlari, bo‘yoq zarrachalari hamda metall ishqalanish izlari aniqlanadi. Transport vositalari to‘qnashuvdan keyin siljib va qisman aylangan holda turli joylarda to‘xtagan, kuzovlarda birlamchi va ikkilamchi shikastlanishlar mavjud.

Hodisa mexanizmi izlar, deformatsiyalar va harakat bosqichlarini (yaqinlashish-to‘qnashuv-keyingi siljish) kompleks tahlil qilish orqali aniqlanishi lozim.

**Mazkur vaziyatga baho bering.**

### **4-Bilet**

1. Murojaat qanday turlari mavjud hamda ularning ko‘rib chiqish muddatlari haqida ma’lumot bering.

2. Sud ekspertizasi usullari tushunchasi va klassifikatsiyasini ayting.
3. Detallar izlaridan zarba markazini qanday aniqlash mumkin?
4. Qaysi izlar harakatni isbotlashda “oltin standart”?

5. Toshkent viloyatida ikki avtomobil ishtirokida yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘ladi. Hodisa joyida g‘ildirak izlari, tormoz va sirpanish izlari, shuningdek shisha va bo‘yoq zarrachalari aniqlanadi. Transport vositalaridan biri yo‘l chetida deyarli o‘z o‘rnida qolgan, ikkinchisi esa to‘qnashuvdan keyin siljigan.

Tekshiruv davomida zarba yo‘nalishi, deformatsiyalar va izlarning joylashuvi bir-biriga to‘liq mos kelmasligi aniqlanadi. Ayrim belgilar transport vositasining zarba paytida harakatda bo‘lganini, boshqa belgilar esa uning harakatsiz yoki past tezlikda bo‘lganini ko‘rsatadi. Shuningdek, yo‘l yuzasidagi izlarning uzilishi, g‘ildiraklarning siljishi va suyuqlik izlari mavjudligi hodisa mexanizmini aniqlashni murakkablashtiradi.

Mazkur holatda transport vositalarining to‘qnashuv paytidagi holati hamda to‘qnashuv joyi izlar, deformatsiyalar va tashlangan jismlar asosida kompleks trasologik tahlil orqali aniqlanishi lozim.

**Mazkur vaziyatga baho bering.**

### **5-Bilet**

1. Normativ-huquqiy hujjat loyihasi qanday ekspertizadan o‘tkazilishi shart?
2. Sud ekspertining majburiyatlari qaysilar?
3. Yo‘l qatnov qismida uchraydigan izlar turlari?
4. Shina izining eni nimani taxmin qilishga yordam beradi?

5. Toshkent viloyatida sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisasida ikki avtomobil to‘qnashgan. Voqea joyida tormoz, sirpanish va qirilish izlari, shuningdek shisha siniqlari, bo‘yoq zarrachalari va ajralib qolgan ehtiyot qismlar aniqlanadi. Transport vositalarining texnik shikastlari turli yo‘nalishda bo‘lib, birlamchi kontakt qaysi qismlarda yuz berganini aniqlash murakkablashgan.

Hodisa yuzasidan tergov davomida transport vositalarining to‘qnashganligi, zarba yo‘nalishi, to‘qnashuv burchagi hamda harakat trayektoriyasini aniqlash zarurati yuzaga keladi. Shu bilan birga, transport vositasida kim haydovchi bo‘lganligi masalasi ham ochiq qoladi.

Mazkur holatda hodisani to‘liq tiklash uchun transport-trasologik, avtotexnik va sud-tibbiy ekspertlar ishtirokida kompleks ekspertiza o‘tkazish talab etiladi. Izlar, texnik shikastlanishlar, transport vositalarining joylashuvi hamda boshqa moddiy dalillar asosida hodisa mexanizmi ilmiy asosda tiklanishi lozim.

**Mazkur vaziyatga baho bering.**

**Markaz mudiri v.b.**



**Z. Raxmonov**

**Kelishildi**

**Bo'lim boshlig'i v.b.**



**O'. Jalolov**

**Bo'lim boshlig'i v.b.**



**A. Yusupbayeva**